

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA OBRAZLAR TALQINI

Farg’ona davlat universiteti 2-kurs talabalari

Munavvarova Diyora

Yigitaliyeva Shahlo

Annotatsiya

Ushbu maqola ilmiy asarlarga tayangan holda, Microsoft Word dasturida yaratildi. Maqola Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni haqida yozilgan. Kirish qismida Alisher Navoiy “Xamsa” dostoni haqida yoritilgan bo’lsa, asosiy qismda “Farhod va Shirin” dostoni haqida batafsil yoritilgan. Maqola yakunida ,shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati ham ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: “Xamsa” asari, “Farhod va Shirin” dostoni, Farhod, Shirin, majoziy ishq, haqiqiy ishq, obrazlar, asar tili

KIRISH

Alisher Navoiy 5 dostondan iborat “Xamsa” dostonini yaratgan .U 1483-1485 yillar yozilgan bo’lib, “Farhod va SHirin “dostoni “xamsa” ning ikkinchi dostoni hisoblanadi. U 1484-yilda yozilgan bo’lib, 54 bob, 5782 baytni tashkil etadi.Alisher Navoiygacha bu doston “Xusrav va SHirin “shaklida bo’lgan. Farhodni ilk bor bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor 14-asrda Ozarbayjonda yashab ijod etgan Orif Ardabiliyning “ Farhodnoma “ nomli fors tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi, lekin bu dostondagi bosh qahramonlar - Farhod va SHirin timsoli xalq og’zaki ijodidagi afsona va rivoyatlarga borib taqaladi. Farhod pahlavon sifatida tilga olingan .U oqil va insonparvar nihoyatda savodli tasvirlangan .

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki ,“Farhod va SHirin” mavzusiga ko’ra ishqiy - romantik dostondir. Bu doston majoz va haqiqatni ranmziylik va hayotiylilikni birlashtirgan holda yozilgan .“Farhod va SHirin “dostoni syujeti esa Chin xoqonining farzandsizligi va shahzoda Farhodning go’dakligi, dunyoga kelishi to’g’risida bayon qiladi . Navoiy Farhod nomining arab yozuvidagi harflariga ramziy ta’rif berib , u firoq, rashk, hajr, oh, darddan iborat deydi. Negaki , ilohiy ishq egasi Haq o’zi orasida to’siq bo’lib turgan o’tkinchi dunyo havaslaridan qutilguncha shu iztiroblarni chekishi shart bo’ladi. Farhod obrazini muallif kurashuvchan faol shaxs sifatida tasvirlaydi. U tinch , shohona hayot kechirishdan ko’ra o’z maqsadini amalga oshirishda ming bir mashaqqatni afzal biladi. Undagi har bir harakat oliyjanoblikka ,qahramonlikka va komil inson bo’lishga undaydi .O’z sevgisi yo’lida hatto jonidan ham kechishga tayyor . Farhod shaxsiyatidagi oliyjanoblik uning kanal

qazuvchilarga beminnat yordamida , samimiyatida yaqqol ko'rinadi . Navoiyning o'zi ham illmga , san'atga va hunarga ega odamlarni juda qattiq hurmat qilgan. SHuning uchun ham shu masalalarga katta e'tibor bergan. Shoир asarlarida hunar va san'at odamlari juda samimiyl va chuqur sevgi bilan tasvirlangan .Navoiy Farhodni ishqiy sarguzasht ketidan quvlaydigan oddiy ishq odami qilib qo'yagan uning zimmasiga shoирning orzu-istiklari ozod va obod mamlakat qurish vazifalari qo'yilgan.

Dostonda ayollar tasviri ham o'ziga xos Ular faqat tashqi husn bilangina tasvirlanmaydi. Bular o'z aql va zakovatlari bilan ham atrofdagi kishilarini lol qoldiradi .SHirin esa faqat go'zallik timsoli emas ,balki haqiqiy ma'naviy fazilatlarga ega bir malika .SHirinning tarixiy shaxs ekanligi ,go'zal va iffatlito'g'risidagi hikoyalar keyinchalik butun bir dostoniga aylanib ketilganligi aytildi. SHirinning hayosi, jasorati ilm-u ma'rifati hamma uchun o'rnak bo'ladi. Mehinbonu ham har tomonlama SHiringa munosib opa, nafosat va siyosat maydonida haqi qiy malikadir. SHirin ishtirok etadigan majlislarda ilmning turli sohalari bo'yicha yetuk qizlar ishtirok etadi .bundan ko'rinish turibdiki, Navoiy ayollarning ham har sohada yetuk bo'lishini xohlagan .

Dostondagi har bir timsol yuksak mahorat bilan ishlangan bo'lib , Navoiy har bir obrazga ,har bir detalga alohida bir vazifa yuklanganini ko'rish mumkin . Dostonda ilohiy ishqdan bebahra qolgan foni dunyo kishilaridan biri Xusravdir .Navoiy bu ikki qahramonning munozarasini tasvirlar ekan, ikki xil ishq avom va ilohiy ishq o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi.Xusrav obrazi orqali makkorlik va xudbinlik bilan hech narsaga erishib bo'lmasligini ko'rsatadi. Farhod o'limi orqali esa avom ishqiga yetishgan inson sifatida ma'naviy xulosa qilish mumkin. Xulosa: Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bu doston orqali butun bir jamiyatda bo'ladijan holatlar, ilohiy ishq yo'lida fido bo'lish yetarlicha yoritib berilgan. Dostonda biz, avvalo, inson g'ururini ,erk- huquqini yuksak insoniy fazilatlarni yetuk badiiyat bilan ulug'lagan zulmlarni inkor etib, sevgi va sadoqatni madh etgan asar sifatida ko'ramiz .Navoiyning ushbu dostonining g'oyasi hozirgi jamiyatimiz uchun ham suv va havodek zarur ekanligiga guvoh bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SHuhrat Sirojiddinov ,Dilnavoz Yusupova , Olimjon Davlatjonov .Toshkent - 2019.
2. D.Quronov ,Z.Mamajonov, M.SHeraliyeva . Adabiyotshunoslik lug'ati.T:"akademnashr", 2010.
3. Q.Yo'ldoshev. Badiiy tahlil asoslari. T. 2012.
4. T.Jalolov. Go'zallik olamida. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 1989.